

**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЗГОРИИ
ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНЧАКЕНТ**



**ПАЁМИ ДОНИШКАДА
ТАФАККУРИ ТАЪРИХ
АНВОРИ ИЛМ**

№2-3 - 2025

**ВЕСТНИК ИНСТИТУТА
ПОЗНАНИЕ ИСТОРИИ
СВЕТОЧ НАУКИ**

№2-3- 2025

**BULLETIN OF THE INSTITUTE
KNOWLEDGE OF HISTORY
LIGHT OF SCIENCE**

№2-3 - 2025

Нашри махсус/Специальное издание/Special edition



**Панҷакент-2025
[https:// Dotpanj.tj](https://Dotpanj.tj)**

**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЗГОРИИ
ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНЧАКЕНТ**

**ПАЁМИ ДОНИШКАДА
ТАФАККУРИ ТАЪРИХ
АНВОРИ ИЛМ**

№ 2-3- 2025

**ВЕСТНИК ИНСТИТУТА
ПОЗНАНИЕ ИСТОРИИ
СВЕТОЧ НАУКИ**

№2-3 - 2025

**BULLETIN OF THE INSTITUTE
KNOWLEDGE OF HISTORY
LIGHT OF SCIENCE**

№2-3 - 2025

**Нашри махсус/Специальное издание/Special edition
МАВОДИ**

**Анҷумани илмӣ-амалии байналмиллалии “Хонишхон VII – уми Артуҷ” баҳшида ба “Масоили
мубрами илмҳои педагогӣ, иҷтимоӣ-гуманитарӣ ва фанҳои риёзӣ ва дақиқ дар замони муосир” (Эҳёи
Тоҷикистон), 14-16 июли соли 2025 дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент**



**-Панҷакент-2025
[https:// Dotpanj.tj](https://Dotpanj.tj)**

Jumayev Erkin Boltayevich
Buxoro davlat universiteti
nemis filologiyasi kafedrası
dotsenti, f.f.f.d(phD)
jumaev.erkin@inbox.ru

O‘ZBEK VA NEMIS MIKROMATNLARINING KOGNITIV-SEMANTIK TADQIQI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek va nemis mikromatnlarining kognitiv-semantik tahlili makropropozitsiya tushunchasi doirasida yoritiladi. Tilshunos T.A. van Deyk tomonidan ilgari surilgan makropropozitsiya nazariyasi asosida matnning umumiy mazmuni va mantiqiy tuzilishi, shuningdek, lokal va global aloqadorlik, supershakal, vaziyat modeli kabi diskursiy tushunchalar tahlil qilinadi. O‘zbek va nemis tilidagi mikromatnlar misolida propozitsion tahlilning amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Nemis mikromatnlarining konnotativ va metaforik mazmuni, ularni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar, madaniyatlararo tafovutlar hamda tarjimondan talab etiladigan lingvistik sezgirlik va interpretatsion kompetensiyalar yoritiladi. Ushbu tadqiqot mikromatnlarni nafaqat lingvistik, balki madaniy, sotsiopragsmatik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: makropropozitsiya, propozitsion tahlil, mikromatn, diskurs, kognitiv semantika, supershakal, vaziyat modeli, lokal va global aloqadorlik, konnotatsiya, metafora, tarjima, madaniy kontekst, nemis tili.

Аннотация: В данной статье рассматривается когнитивно-семантический анализ узбекских и немецких микротекстов в рамках концепции макропропозиции. На основе теории макропропозиции, выдвинутой лингвистом Т.А. ван Дейком, анализируется общее содержание и логическая структура текста, а также такие дискурсивные понятия, как локальная и глобальная релевантность, суперформа и ситуативная модель. Практическое применение пропозиционального анализа рассматривается на примере микротекстов на узбекском и немецком языках. Освещены коннотативное и метафорическое содержание немецких микротекстов, трудности их перевода, межкультурные различия, а также требуемые от переводчика лингвистическая чувствительность и интерпретационные компетенции. Данное исследование позволяет провести глубокий анализ микротекстов не только с лингвистической, но и с культурологической, социопрагматической и переводческой точек зрения.

Ключевые слова: макропропозиция, пропозициональный анализ, микротекст, дискурс, когнитивная семантика, суперструктура, ситуационная модель, локальная и глобальная релевантность, коннотация, метафора, перевод, культурный контекст, немецкий язык.

Abstract: This article discusses the cognitive-semantic analysis of Uzbek and German microtexts within the framework of the concept of macroproposition. Based on the theory of macroproposition put forward by linguist T.A. van Dijk, the general content and logical structure of the text, as well as such discursive concepts as local and global relevance, supershape, and situational model, are analyzed. The practical application of propositional analysis is considered on the example of microtexts in Uzbek and German. The connotative and metaphorical content of German microtexts, the difficulties of their translation, intercultural differences, and the linguistic sensitivity and interpretive competencies required of the translator are highlighted. This study allows for an in-depth analysis of microtexts not only from a linguistic, but also from a cultural, sociopragsmatic, and translation studies perspective.

Keywords: macroproposition, propositional analysis, microtext, discourse, cognitive semantics, superstructure, situation model, local and global relevance, connotation, metaphor, translation, cultural context, German language.

Makropropozitsiya tushunchasi diskursning kognitiv-semantik tahlili, shu jumladan, matn interpretatsiyasidagi markaziy tushunchalardan biridir. Bu tushuncha va termin tilshunoslikka Amsterdam universiteti professori, mashhur lingvist Van Deyk T.A. tomonidan olib kirilgan. Xususan, uning 1983 yil Nyu-Yorkda V.Kinch bilan hammualliflikda chop ettirgan “Makrostrategiyalar” nomli maqolasi matn interpretatsiyasi xususidagi qarashlarning shakllanishida alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqolada makropropozitsiya, makrostruktura, supershakl (superstruktura), global mazmun, lokal aloqadorlik, global aloqadorlik kabi matn interpretatsiyasiga doir tushunchalarning asoslab berilganligi matn tahlili darajasining yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Matn mazmunining idrok etilishidagi eng birinchi shart – unda ifodalangan makropropozitsiyani anglab yetishdir. Makropropozitsiya matnni tashkil etgan gaplar propozitsiyasidan kelib chiqadigan umumiy propozitsiyadir.

Van Deyk T.A. nazariyasiga ko‘ra, makropropozitsiyalar birlashuvi matn makrostrukturasini tashkil etadi. Makrostruktura – makromatnning umumiy mazmuni bo‘lib, o‘zida makropropozitsiyalarning pog‘onaviy munosabatini aks ettiradi. Demak, makropropozitsiya tushunchasi nisbiylik xarakteriga ega.

Van Deyk T.A. tomonidan qo‘llangan vaziyat modeli termini konseptual bosqich, ya‘ni konseptning lisoniy shakl olish bosqichining birligini ifodalab, voqelik fragmenti, ya‘ni muayyan vaziyat haqidagi bilimlarning inson xotirasidagi kognitiv korrelyatidir. Rus tilida “situatsionnaya model” shaklida qo‘llaniluvchi bu terminni prof. Sh.Safarov situatsiya modeli tarzida qo‘llagan.

Ma‘lumki, situatsiya so‘zi o‘zbek tilshunosligida hozirgi vaqtda vaziyat so‘zi orqali ifodalanmoqda. Shu sababli mazkur terminni vaziyat modeli deb qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Van Deyk T.A. matn makropropozitsiyasini aniqlashda quyidagi qoidalarga amal qilinishini qayd etgan:

1. Tushirib qoldirish, ya‘ni makropropozitsiyani aniqlashga xizmat qilmaydigan propozitsiyalarni e‘tiborga olmaslik.
2. Umumlashtirish, ya‘ni matnni tashkil etuvchi gaplarda ifodalangan propozitsiyalarning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda makropropozitsiyani aniqlash.
3. Tuzish, ya‘ni propozitsiyalar ketma-ketligini ularning yig‘indisidan kelib chiqqan propozitsiya bilan almashtirish.

Ma‘lum bo‘ladiki, makropropozitsiya tushunchasi o‘zbek tilshunosligida hali yaxshi o‘rganilmagan matn propozitsiyasini tadqiq etishda muhim bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matn muallifi va resipientning kognitiv faoliyatini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Makropropozitsiya tushunchasi olimning asarlarida asosan matbuot materiallariga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, fikrimizcha, bu qarashdan diskursiv xarakterdagi har qanday matnning kognitiv-semantik xususiyatlarini yoritishda bemalol foydalanish mumkin bo‘ladi. Makropropozitsiya tushunchasi ayniqsa ikkilamchi nominatsiyalar bilan ish ko‘ruvchi badiiy matn tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimiz dalili uchun O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan mikromatnni tahlil etishga urinib ko‘ramiz.

Quyosh buloq suviga ham, mag‘zavaga ham baravar nur sochaveradi.

Yer chuchmomani ham, chaqirtikanakni ham baravar o‘stiraveradi.

Ota-onaga bolaning yaxshi-yomoni yo‘q.

Mikromatndan ko‘rinadiki, bu matnda quyidagi propozitsiyalar ketma-ketligi ifodalangan: 1. Quyoshning buloq suviga va mag‘zavaga bir xilda nur sochishi. 2. Yerdan

chuchmoma va chaqirtikanakning baravar o'sishi. 3. Ota-onaga bolaning yaxshi-yomoni yo'q ekanligi.

Mazkur propozitsiyalarni lokal aloqadorlik nuqtai nazaridan faqat temporallik kategoriyasi birlashtirib turibdi. Global aloqadorlikka ko'ra esa ularning o'zaro munosabatini ta'minlovchi vositani ushbu matnning botiniy tuzilishidan izlash kerak bo'ladi. Ya'ni o'quvchi ushbu matnda yer, quyosh – ota-ona; chuchmoma, buloq suvi – yaxshi bo'lish xususiyati; mag'zava, chaqirtikanak – yomon bo'lish xususiyati referentlarining o'zaro qiyosiy munosabatda ekanligini anglab yetishi lozim. Ushbu munosabatlar mohiyatan aniq bo'lgandagina, eng oxirgi propozitsiya ushbu matnning makropropozitsiyasi ekanligi ayon bo'ladi. O'quvchi ushbu matnning asosiy mazmunini tushirib qoldirish qoidasiga ko'ra idrok etadi.

Quyidagi matnda esa makropropozitsiya matnda bevosita ifodalanmagan bo'lib, umumlashtirish qoidasiga asosan tiklanadi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanligini aniq bilmas edi. Abdulg'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'ldan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

- Devonai Bahovuddinga hech narsa ko'tardingizmi? G'avsul a'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. (A.Qahhor "Bemor" hikoyasi)

Berilgan matnda ifodalangan makropropozitsiya "Abdulg'aniboy Sotiboldiga moddiy yordam berishni istamadi" ifodasidan iborat.

Pragmatik jihatdan makropropozitsiya matn muallifining matn orqali aytmoqchi bo'lgan eng muhim fikri, o'quvchi nuqtai nazaridan qaraganda esa uning matn mazmunidan kelib chiqib hosil qilgan yakuniy xulosasidir.

Ko'rinadiki, makropropozitsiya matnda eksplitsit ifodaga ega bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Ikkinchi holatda makropropozitsiya mantiqiy-kognitiv tuzilmalar yordamida tiklanadi. Bunda matn o'quvchisining kognitiv faoliyati matn mazmunining to'liq anglashilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu o'rinda I.R.Galperinning o'qilayotgan matnni harakatdagi matn, o'qish jarayonidan tashqarida bo'lgan matnni esa harakatsiz matn sifatida baholaganini esga olish o'rinlidir.

Matnning propozitiv tuzilishini tadqiq etishning yana bir ochilmagan qirrası borki, u ham bo'lsa metaforik mazmunli matnlardir. Ma'lumki, bunday matnlar mazmun jihatidan ikki qatlamli, ya'ni sintaktik shakl orqali ifodalangan mazmun va muallif nazarda tutgan mazmundan iborat bo'ladi. Bunga A.Suyunning "Oq va qora" she'ridan keltirilgan parcha misol bo'lishi mumkin:

Oq tog'larni izladim,

Qora tog'lar duch keldi.

Qora tog'lar quchog'ini kezdim, yoronlar,

Oq tog'larga ketguncha.

Bu kabi matnlarning propozitiv tuzilishini qanday izohlash lozim? Bunda verbal vositalar orqali ifodalangan propozitsiyani hisobga olish kerakmi yoki nazarda tutilgan propozitsiyanimi?

Fikrimizcha, bu o'rinda bizga matnning ichki tuzilishi haqidagi tushuncha yordamga keladi, ya'ni mazkur matnning tashqi tuzilishida referent sifatida oq va qora tog'lar tanlangan, ichki tuzilishida esa ular o'rnini yaxshi va yomon odamlar egallaydi. Matn makropropozitsiyasi mana shu referentlar qiyosi asosida tiklanadi va bu o'rinda ham she'r o'quvchisining kognitiv qobiliyati, oq va qora konseptlarining ramziy xarakterga ega ekanligi haqidagi zaxira bilimlari matnda yashiringan "energiya"ni ishga tushiradi. Natijada lirik qahramonning yaxshi insonlarni topguncha, yomon insonlar orasida bo'lishga majbur bo'lganligi haqidagi axborot ushbu mikromatnning makropropozitsiyasi ekanligi ayon bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda mikromatnlar va ularning semantik hamda pragmatik tahlili dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Ayniqsa, chet tillaridagi mikromatnlarning mazmunini, ya'ni propositsion tahlili tilning funksional imkoniyatlarini, axborot yetkazish uslublarini va ijtimoiy-madaniy kontekstlarini chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Nemis tili bu borada juda boy va rang-barang imkoniyatlarga ega til hisoblanadi. Ushbu faslda aynan nemis tilidagi mikromatnlarning propositsion tuzilmasi, ularning kommunikativ vazifalari hamda semantik qatlamlari o'rganiladi.

Nemis tilida mikromatn va uning lingvistik tahlili ko'plab semantik qatlamlarni ochib beradi va ular ko'p hollarda konnotativ, metaforik mazmunda bo'lganligi sababli propositsion tahlilsiz maqsadli mazmunini tafakkur qilish anchayin mushkul vazifa.

Propozitsion tahlil tilshunoslikda semantik tahlilning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuvda matnda ifodalangan fikrlar, voqealar, harakatlar va ularning o'zaro munosabati aniqlanadi. Propozitsiya — bu biror fikr, tasdiq yoki inkor ifodalangan semantik birlik bo'lib, u predikat (harakat) va unga bog'langan argumentlardan iborat bo'ladi.

Nemis mikromatnlariga xos xususiyatlardan biri — ularning struktur jihatdan ixchamligi va semantik jihatdan boy mazmunga ega ekanligidir. Bu tilga xos bo'lgan sintaktik konstruksiyalar semantik sarmazmunlikni ta'minlaydi.

„Arbeit macht frei.“

“Mehnat erkinlikni beradi.”

„Nur die Harten kommen in den Garten.“

“Faqat kuchlilar bog'ga yetib boradi.”

Bu iboralarda ko'plab yashirin propositsiyalar mavjud:

Mehnat insonni ulug'laydi.

Har qanday muvaffaqiyat mashaqqatli mehnat samarasidir.

Kuchli bo'lmaganlar manzilga yetolmaydi.

Bunday mikromatnlar o'zida hayot falsafasini ifodalagan holda, qisqa, ammo chuqur axborot beradi.

„Ohne Moos nix los.“

Bu iboraning so'zma-so'z tarjimasi: „Pulsiz — hech narsa yo'q.“

Yashirin propositsiyalar:

Pul hayotdagi harakatlar uchun asosiy vosita.

Moliyaviy resurslarsiz imkoniyatlar cheklangan.

Pul — harakat erkinligini ta'minlovchi asosiy omil.

Bu yerda pul va faollik o'rtasida bevosita sabab-oqibat munosabati mavjud.

„Ich bin doch nicht blöd.“

"Axir men ahmoq emasman-ku."

Ushbu mikromatn orqali iste'molchiga bevosita psixologik ta'sir o'tkaziladi.

Propozitsion tahlil nafaqat lingvistik tahlil, balki tarjimashunoslik, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik uchun ham juda muhim. Mikromatnni tarjima qilishda propositsion mazmunni to'g'ri tushunish zarur, chunki u konnotatsion yoki madaniy jihatdan muhim ma'noni anglatishi mumkin.

Misol uchun, „Kein Bier vor vier“ iborasini faqat grammatik jihatdan tarjima qilish yetarli emas. U ijtimoiy me'yor (ichkilik uchun belgilangan vaqt) haqidagi yashirin propositsiyani ham anglatadi. Propozitsion tahlilni samarali amalga oshirish uchun bir nechta metodik yondashuvlardan foydalaniladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Semantik segmentatsiya – mikromatnni alohida semantik birliklarga ajratish (subyekt, predikat, obyekt).

2. Logik munosabatlarni aniqlash – sabab-oqibat, qarama-qarshilik, muvofiqlik va natijani ko'rsatish.

3. Implicatura va presuppozitsiyalarni aniqlash – matnda ochiq aytilmagan, ammo taxmin qilingan yoki taxminan tushuniladigan ma’nolar.

4. Kontekstual tahlil – mikromatn qaysi madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy sharoitda ishlatilganini hisobga olish.

Bu metodikalar asosida mikromatnlar faqat grammatik jihatdan emas, balki ma’no, ijtimoiy konnotatsiya va kommunikativ maqsad nuqtai nazaridan ham o’rganiladi.

Mikromatnlarni boshqa tilga tarjima qilishda muhim muammolardan biri – ularning qisqaligi sababli semantik yuklamasi kuchli bo’lishidir. Nemis tili mikromatnlarini o’zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi muammolar yuzaga keladi:

1. Konnotatsion ma’no yo’qolishi – iboraning obrazlilik yoki yumori tarjimada saqlanmasligi mumkin.

2. Kontekstda tushuniladigan propozitsiyalar – ba’zi ma’nolar matnning o’zida mavjud bo’lmay, balki faqat madaniy kontekstda anglashiladi.

3. Lingvistik nomuvofiqlik – nemis tilidagi ba’zi strukturaviy modellar (masalan, kesimsiz gaplar) o’zbek tilida to’liq ekvivalentga ega emas.

„Geiz ist geil.“ni „Xasislik zo’r!“ deb tarjima qilish yetarli emas, bu ibora orqasidagi iste’mol falsafasini tushuntirish kerak bo’ladi. „Geiz ist geil“ „Ziqnalik zo’r narsa“ yoki „Tejamkorlik zo’r“ iborasi Germaniyada katta madaniy va ijtimoiy aks-sado bergan mashhur reklama shioridir. Bu ibora aslida Saturn nomli nemis elektronika do’konlari tarmog’i tomonidan 2002-yildan boshlab reklama kampaniyasida ishlatilgan.

„Geiz“ – odatda salbiy ma’noga ega bo’lib, ziqnalik, xasislik degan ma’noni anglatadi. „Geil“ esa aslida jo’shqin, hayajonli degan ma’noga ega bo’lib, lekin so’zlashuv tilida „zo’r“, „super“, „kulgili“ ma’nosida ishlatiladi. Shiori birinchi marta ko’rgan nemislar bu ikkita qarama-qarshi so’zning bir jumlada berilganidan hayratda qolishgan.

Nemislar tarixan tejamkorlik va ehtiyotkorlikni qadrlagan xalq hisoblanadi. Ammo shiorda bu fazilat ziqnalikka aylantirilgan va jamiyatda iste’molchilik mentalitetini kuchaytirishga xizmat qilgan. Ya’ni, odamlar arzon narxda mahsulot olishni shunchalik qadrlay boshlaganki, sifat va ijtimoiy mas’uliyat ikkinchi planga o’tgan. Shior yolg’on qadriyatlarni targ’ib qiluvchi vosita sifatida tanqid ham qilingan. Ammo barcha tanqidlarga qaramay, reklama kampaniyasi ommaviy yodda qolgan, va tilning provokatsion kuchi sababli Saturn do’konlari o’z savdolarini ancha oshirishgan. Shu sababli, tarjimonda mikromatnlarning propozitsion mazmunini anglab, uni ekvivalent shaklda, zarur bo’lsa, izoh bilan berish lozim.

Har bir mikromatn ma’lum bir milliy-madaniy kontekst bilan bog’langan. Nemis tilida ishlatiladigan mikromatnlar ko’pincha quyidagi ijtimoiy hodisalar, qadriyatlar va stereotiplar bilan bog’liq bo’ladi:

Ishchanlik va tejamkorlik — „Zeit ist Geld“, „Geiz ist geil“.

Avtonomiya va erkinlik — „Ich bin doch nicht blöd“, „Arbeit macht frei“.

Ijtimoiy nazorat va norma — „Kein Bier vor vier“.

Bu mikromatnlar boshqa madaniy kontekstda to’g’ri tushunilishi uchun ularni faqat tarjima qilish emas, balki interpretatsiya qilish zarur. Masalan, „Kein Bier vor vier“ iborasi nemis jamiyatidagi ichkilik ichish me’yoriga ishora qiladi. Bu ibora boshqa jamiyatlarda mavjud bo’lmagan ijtimoiy konvensiyani ifodalaydi, shuning uchun uni tarjima qilishda izoh berilishi zarur bo’ladi.

Mikromatnlar, garchi hajmi kichik bo’lsa-da, lekin semantik jihatdan mustaqil va ko’p qatlamli bo’lishi bilan ajralib turadi. Ularning tahlili nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, pragmalingvistika, madaniyatshunoslik va til o’qitish metodikasi uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bunday mikromatnlarni tahlil qilish orqali nemis tilining qanchalik obrazli, qisqa shaklda chuqur ma’no bera oladigan til ekanligi ko’zga tashlanadi.

Ularning tarjimasida esa maxsus yondashuv, lingvistik sezgi va madaniyatlararo kompetensiyani talab qiladi.

Xulosa. Maqolada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mikromatnlarning chuqur semantik tahlili — xususan, makropropozitsiya hodisasi orqali matnning asosiy g'oyasi aniqlanadi va bu esa resipientning matnni to'g'ri idrok etishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mikromatnlarning kognitiv-semantik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Nemis tilidagi mikromatnlarning o'ziga xos sintaktik va semantik ixchamligi ularning propozitsion tahlilini muhim metodga aylantiradi. Tarjimada esa konnotativ ma'nolarni to'g'ri yetkazish va madaniy kontekstni inobatga olish muhim bo'lib qolmoqda. Shuning uchun mikromatnlarni nafaqat grammatik, balki semantik, pragmatik va madaniy qirralarini hisobga olgan holda tahlil qilish bugungi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Makropropozitsiya matn referensiyasiningina emas, matn muallifining pragmatik maqsadini aniqlashda ham katta ahamiyatga ega, shuningdek, bu hodisa matn interpretatsiyasini o'rganishda va o'quvchi tomonidan matn mazmunining idrok etilishi, ya'ni mazmuniy persepsiya masalalarini yoritishda ham e'tiborga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. van Dijk, Teun A. (1983). Strategic Discourse Comprehension. New York: Academic Press.
2. Худойберганова Д. (2013), Матнинг антропоцентрик тадқиқи Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, Тошкент.
3. Галперин И.Р. (1981). Текст как объект лингвистического исследования. М.: Наука.
4. Сафаров Ш. (2006). Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Heringer, Hans Jürgen (1989). Textstruktur und Textkohärenz. Tübingen: Niemeyer.
9. Bierwisch, Manfred (1970). Semantics: An Interdisciplinary Reader in Philosophy, Linguistics and Psychology. Cambridge University Press.
11. Чеснокова, И.Ю. (2015). Пропозитивная структура микротекста. Вестник ЧелГУ, №7 (371), с. 94–99.

Рустам Жумаев
БухДУ профессори, с.ф.ф.д

БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТИ ВА ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРИ АҲМАД ДОНИШ НИГОҲИДА

Тарихдан маълумки, Марказий Осиё ҳудудида жойлашган давлатлар асрлар давомида қўшни ва хорижий мамлакатлар билан ўзаро миллий манфаатлардан келиб чиқиб, икки ва кўп томонлама амалий ҳамкорлик асосида савдо-сотиқ, маданий алоқалар ҳамда дипломатик муносабатларни ўрнатиб келганлар. Марказий Осиё цивилизациясининг халқаро муносабатлар ва халқаро ҳуқуқнинг вужудга келиши ҳамда ривожланишида тутган ўрни беқиёс ҳисобланади. Аҳмад Дониш жамиятни тараққий эттириш тўғрисидаги Амир Темур, Ҳусайн Бойқаро, Абдуллаҳон ва Субҳонқулихонларнинг фаолиятини ижобий баҳолайди. Унингча, бобурий ҳукмдорлар Шохжаҳон (1627-1658 йй.), Аврангзеб (1658-1707 йй.)лар ҳам адолатли жамият барпо этиш йўлида инсоният тарихида қолган¹³⁵. У амир элчилари қаторида Санкт-Петербург, Москва ва бошқа рус шаҳарларида бўлганида Европа маданиятидан ва у ердаги сиёсий бошқарувдаги либерал ўзгаришлардан таъсирланади. Юқоридагилардан хулоса

¹³⁵ Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Тоҷик тилидан таржима, изоҳлар ва кириш сўзи муаллифи Қиёмиддин Йўлдошев. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2014. – Б. 17.

21.	Ўринова Б.	THE ROLE OF THE PRESS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT UZBEKISTAN	88
22.	Boymurodova M. G.	SURXONDARYO VOHASI MADANIY MEROS OBYEKTARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARI	94
23.	Олим Бурй	МАВЛОНО ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА “МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ” САЙЛАНМАСИ	98
24.	Varayeva A.	O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI ENG YANGI O‘ZLASHMALARNING YUZAGA KELISHIGA SABAB BO‘LUVCHI OMILLAR	111
25.	Ғойибов Б. С.	“СУҒД” АТАМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ	115
26.	Гоффоров Ш.С.	СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ЦЕЛИ КОЛОНИЗАЦИИ И УСИЛЕНИЕ ПОЗИЦИЙ МЕТРОПОЛИИ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX СТОЛЕТИЯ И НАЧАЛА XX СТОЛЕТИЯ)	122
27.	Дехқонова М.У., Бобизода Ғ.М., Қобилов Н.Қ., Иброгимов И.И.	АМАЛИЙИ ТАЪЛИМИ МОДУЛЙ ДАР ДАРСҲОИ МЕТОДИКАИ ТАЪЛИМИ БИОЛОГИЯ	129
28.	Джумаев М.И.	ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В ШКОЛАХ ТАДЖИКСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЫ	136
29.	Doschanov J. S.	TRITIKALE DONINING UNUVCHANLIGIGA BIOAZOTNING TA’SIRI (LABORATORIYA SHAROITIDA)	140
30.	Yoqubova R. O.	MUHAMMAD HAYDAR MIRZO HAYOTI VA FAOLIYATI	142
31.	Yormatov F.	MAMLAKATIMIZDA KEKSALARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YANGI BOSQICHGA KO‘TARILISHI VA IJOBIY O‘ZGARISHLAR	147
32.	Jabborova Sh.	ETNOGRAFIK TURIZM RIVOJIDA XALQARO STANDARTLAR VA JAHON TAJRIBASI	152
33.	Jumayev E.B.	O‘ZBEK VA NEMIS MIKROMATNLARINING KOGNITIV-SEMANTIK TADQIQI	155
34.	Жумаев Р.Ғ.	БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТИ ВА ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРИ АҲМАД ДОНИШ НИГОҲИДА	161
35.	Зарипова Д. О.	ФИКРУ АҚИДАҲОИ РАВОНШИНОСОН ВА ПЕДАГОГҲО ОИД БА ФАЪОЛИЯТИ БОЗИИ КЎДАКОН	168
36.	Zaxidova S. A.	JAMIYAT IJTIMOIIY AHLOQINING TARIXIY NEGIZLARI (HOJA AHROR VALIYNING “HIMOYAT” TIZIMI MISOLIDA)	171
37.	Зиёвиддинзода З. З.	НАҚШИ ТАҲСИЛОТИ ФОСИЛАВЙ ДАР ТАКМИЛИ РАВАНДИ ТАЪЛИМ ДАР ШАРОИТИ МУОСИР	175
38.	Зиёзода А.Ҳ.	ГҲРИСТОНИ ПАНЧАКЕНТИ ҚАДИМ (АСРҲОИ VII-VIII.)	179
39.	Ирзаев Б.	ЖАДИДЛАРНИНГ ТУРКИСТОН ОЗОДЛИГИ УЧУН КУРАШДАГИ ЎРНИ	182
40.	Искандаров Ф. М.	ФОРС АДАБИЁТИДА НАЪТЛАРНИНГ ЯРАТИЛИШИ ВА ТАРАҚҚИЁТИ	188
41.	Yuldashev A. A.	SOME REFLECTIONS ON THE NATIONAL GAME OF THE TURKIC PEOPLES — KUPKARI	193
42.	Каландарова Ф.	SOMIY VA SADRIDDIN AYNIIY	197
43.	Камолова С.	МУҲОФИЗАТИ РАСТАНИҲОИ ГУЛДОРИ НОДИР ВА НЕСТШУДАИСТОДА, КИ БА КИТОБИ СУРҲИ ЧУМҲУРИИ ТОЧИКИСТОН ДОХИЛ КАРДА ШУДААСТ	200

44.	Каримова Н.И.	ИСТОРИЯ ТОРГОВЛИ И ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА)	206
45.	Касимова Г.А.	ЎЗБЕКИСТОН ССР ДЕМОГРАФИК ТАРИХИ (XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИ)	211
46.	Косимова Н.	ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ В ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКЕ: ВЫЗОВЫ, РИСКИ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	217
47.	Каюмова В.Ф.	ПОРТРЕТ ЧИТАТЕЛЯ НОВОСТЕЙ ЭЛЕКТРОННЫХ СМИ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ ИЗ УЗБЕКИСТАНА	222
48.	Qayumova M. A.	SURXON VOHASINING IQTISODIYOTIDA SAVDO YO‘LLARI VA BOZORLARNING O‘RNI (XVIII ASR – XX ASR BOSH LARI)	224
49.	Кимсанов Б. Қ.	СОВЕТ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИ ШАРОИТИДА ТУРКИСТОН АССРДА ДАВЛАТ МОҲИАТИ МАСАЛАСИ	228
50.	Kichkilova M. X.	“XAMSA” - ULUG‘ SHOIRNING MA’NAVIY OLAMI	233
51.	Qobiljonov Q. K.	ILSMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI ASOSLARI	237
52.	Комилова З. Султонова М.	АҚИДАҲОИ МУОСИР ОИД БА ПАЙДОИШИ ФАРБЕҲЎ	242
53.	Qorayev Sh. P.	AMIR ALISHER NAVOIYNING SUNBATDOSH LARI	248
54.	Кулдашев Ш.	РОЛЬ ПОТОМКОВ МАҲДУМИ АЗАМА В ЖИЗНИ ЯРКЕНДСКОГО И КОКАНДСКОГО ХАНСТВ	256
55.	Kurbanov K. I.	BUXORO AMIRLIGI VA Rossiya O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARDAGI QULCHILIK MASALASI	260
56.	Qulsaxatov D.k	AMIR NASRULLOH BAHODURXON HAYOTI VA FAOLIYATI TARIXI	266
57.	Курбанов Ш. Ф.	РАСКОПКИ ОБЪЕКТА XXX В 2024 ГОДУ	269
58.	Қурбонов Қ.К.	НАҚШИ ОБҲОИ ТОЗА ДАР РУШДИ УСТУВОРИ ЧОМЕАҲО	280
59.	Қурбонова А. А.	САБАБҲОИ ПАСТШАВИИ ДАРАЎАИ НЕРЎИ ЗЕЪНИИ ХОНАНДАҲОНИ БОЛАЁҚАТ ДАР РАВАНДИ ТАЪЛИМУ ТАРБИЯ	284
60.	Латипов Ж. Л.	ХИТАН (ЛЯО) ХОҚОНЛИГИ ТАШҚИ СИЁСАТИНИНГ МЎҒУЛЛАР ИМПЕРИЯСИ ТАШКИЛ ТОПИШ ЖАРАЁНЛАРИГА ҚЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	291
61.	Lutfillaev M.X., Lutfillaev U.M. Xasanov Sh.M.	MAIN PRINCIPLES OF CREATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION	299
62.	Матякубов Ш.С.	ОҒАҲИЙНИНГ “ЖАМЕЪУ-Л-ВОҚЕОТИ СУЛТОНИЙ”ТАРИХИЙ АСАРИДАГИ ҚЎНҒИРОТЛАР СУЛОЛАСИ ХОНЛАРИГА ОИД ТАҒСИЛОТЛАР	305
63.	Muborak M. M.	XIVA XONLIGIDA ICHKI (MAHALLIY) SAVDONING IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O‘RNI	311
64.	Mahmudov R.	XORAZM TURKIY TARIXNAVISLIGI USLUBIYATIDA MA’NOVIY BADIY SAN’ATLAR	316
65.	Махмудова Н. Б.	ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ОРГАНИЗАЦИИ ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЫ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ НА НАЧАЛО XX В. ПО МАТЕРИАЛАМ ОТЧЁТА СЕНАТОРСКОЙ РЕВИЗИИ ГРАФА К.К.ПАЛЕНА	321
66.	Masharipov M. Kh.	INFLUENCE OF SOWING TIMES ON PLANT DEVELOPMENT AND YIELD ELEMENTS IN MUNG BEAN CULTIVATION	326